



BARQAROR RIVOJLANISH YO‘LIDA HAMKORLIK MASALASI (O‘ZBEKISTON VA OZARBAYJON MISOLIDA)

Abdullayeva Ra’noxon

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Annotatsiya. Barqaror rivojlanish maqsadlari BMTga a’zo har bir davlatning asosiy rivojlanish yo‘lidagi muhim qadamlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish borasida hamkorlik masalasi juda dolzarb. Xalqaro hamkorlik va o‘zaro manfaatli aloqalar davlatlarni rivojlanishiga, bu esa bevosita iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yuksalishga, aholini yashash tarzini yaxshilanishiga, ta’limni va sog‘liqni saqlash sohasini kuchayishiga, yoshlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri jalb qilib, ularni jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlanishiga olib keladi. Zanjir kabi o‘zaro bog‘liq bu omillar bir birini rivojlanishiga ta’sir qilishi tabiiy. Maqolada O‘zbekiston va Ozarbayjon hamkorligi misolida maqsadlarimizga erishish yo‘llari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Barqaror rivojlanish, hamkorlik, xalqaro aloqalar, O‘zbekiston, Ozarbayjon, Strategik sheriklik, yoshlar, forum.

Аннотация: Цели устойчивого развития являются одним из важных шагов на пути к главному развитию каждого государства-члена ООН. Вопрос сотрудничества в достижении этих целей очень актуален. Международное сотрудничество и взаимовыгодные отношения ведут к развитию стран, что напрямую ведет к экономическому, социальному и культурному росту, улучшению образа жизни населения, укреплению сферы образования и здравоохранения, обеспечению активного участия молодежи в жизни общества. Естественно, что эти факторы, связаны между собой как цепочка и влияют на развитие друг друга. В статье представлены пути достижения поставленных целей на примере сотрудничества между Узбекистаном и Азербайджаном.

Ключевые слова: Устойчивое развитие, сотрудничество, международные отношения, Узбекистан, Азербайджан, Стратегическое партнерство, молодежь, форум.

Abstract: The goals of sustainable development are one of the important steps towards the main development of each UN member state. The issue of cooperation in achieving these goals is very urgent. International cooperation and mutually beneficial relations lead to the development of countries, which directly leads to economic, social and cultural growth, improvement of the way of life of the population, strengthening of education and health sector, provision of active participation of young people in the life of society. It is natural that these factors, interrelated like a chain and affect each other's development. The article presents ways to achieve our goals on the example of cooperation between Uzbekistan and Azerbaijan.

Keywords: Sustainable development, cooperation, international relations, Uzbekistan, Azerbaijan, Strategic partnership, youth, forum.

Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar Yer yuzida qashshoqlikka barham berish, atrof-muhit va iqlimni himoya qilish hamda dunyodagi barcha kishilar tinchlik va ravnaq topishdan bahramand bo'lishini ta'minlash bo'yicha global miqyosda harakat qilishga da'vatdir.[1]¹ Bu yo'lda avvalo hamkorlik o'rnatilishi muhim. Davlatlararo munosabatlarning asosini o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish yo'llari tashkil qiladi, shuning uchun har bir davlatning oliy maqsadi tinchlik va barqarorlikka erishish yo'lida birga harakat qilish hisoblanadi. Bu yo'lda yolg'iz bir davlat samarali natijaga erisha olmaydi. Belgilangan maqsadlarga erishish yo'lida hamkorlikda harakat qilish muhim. Kambag'allikni, ochlikni bartaraf etish, sifatli ta'limni rivojlantirish yoki sog'liqni saqlash tizimini yanada kuchaytirishga erishish yo'lida ko'proq nimalarga e'tibor berish kerak? Zamonaviy dunyoda texnologik rivojlanish tez suratlarda borar ekan biz ham ortda qolmasdan jadalroq harakat qilishimiz zarur. Innovatsion g'oyalarni izlash, ularni loyihalash va amalda ularni qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqishda hamkorlik masalasi muhim o'rin tutadi.

Yangi O'zbekiston yangi tashqi siyosiy tamoyillarga asoslanib ochiq pragmatik tashqi siyosat olib borishni maqsad qilib, dunyoning yetakchi davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirmoqda. Buning uchun 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlarida belgilangan tashqi siyosiy aloqalarni Markaziy Osiyo davlatlari bilan bir qatorda, Janubiy Kavkazning muhim strategik davlatlaridan biri bo'lmish Ozarbayjon bilan ham manfaatli tarzda rivojlantirish va yanada jadallashtirish muhim. *Muhammad Asif Noor "New Imputes in Azerbaijan and Uzbekistan relations"* nomli maqolasida ta'kidlaganidek, Ozarbayjon va O'zbekiston Kavkaz va Markaziy Osiyo yetakchilari sifatida mintaqaviy hamkorlik va tinchlik o'lchovida kattaroq rol o'ynashi kerak. Ozarbayjon va O'zbekiston ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish, tranzit savdo-sotiq, iqtisodiy taraqqiyot va kommunikatsiya tarmoqlari orqali boshqa davlatlar bilan sheriklik aloqalarini ochishda muhim o'rin tutadi.² Hamkorlik munosabatlari uzoq yillarni tashkil qiladi. Turli rasmiy tashriflar ularni yanada jadallashishiga olib kelmoqda. Jumladan, 2022-yil iyunda Ozarbayjon Respublikasining Prezidenti Ilhom Aliyevning O'zbekistonga tashrifi aloqalarga yangi impuls berdi. O'z navbatida, "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" markazi direktori Eldor Tulyakov ta'kidlaganidek, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama hamkorlik 30 yildan ortiq vaqtdan beri jadal rivojlanib bormoqda. Ekspertning fikricha, Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyevning O'zbekistonga bu galgi tashrifi ikki davlat o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga yangi sur'at bag'ishlaydi, yaqin muloqotni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.³ O'zaro hamkorlik turli

¹ BMTning O'zbekistandagi rasmiy sahifasi <https://uzbekistan.un.org/en/sdgs>

² Muhammad Asif Noor "New Imputes in Azerbaijan and Uzbekistan relations"

<https://dailytimes.com.pk/959458/new-imputes-in-azerbaijan-and-uzbekistan-relations/>

³ Nargiz Sadikhova BAKU, Azerbaijan, June 22. President of Azerbaijan Ilham Aliyev arrived on a state visit to Uzbekistan on June 21, Trend reports

sohalarni qamrab oladi: strategik sheriklikdan tortib, mudofaa, tashqi siyosat, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot, transport, raqamlashtirish, sanoat, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish va boshqalar. Madaniy gumanitar yo'nalish alohida ahamiyatli. Chunki o'zaro yaqin tilga, dinga, qadriyatga ega xalqning munosabatlarida samimiylilik va o'zaro ishonch yuqoriroq bo'ladi. Jumladan, Ozarbayjonning Umumilliy Lideri Haydar Aliyevning 100 yillik yubileyi kuni kecha bizning yurtimizda juda keng tarzda nishonlandi:

- Toshkentda Umumilliy Lider Haydar Aliyev tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan katta konsert bo'lib o'tdi.
- O'zbekistonning "Adabiyot gazetasi"ning maxsus soni Haydar Aliyev tavalludining 100 yilligiga bag'ishlandi.
- Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universitetida, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida Umumilliy Lider Haydar Aliyevning 100 yilligi munosabati bilan xalqaro konferensiyalar o'tkazildi. Ozarbayjon xalqining buyuk insoniga berilgan e'tibor o'z navbatida ikki xalqning madaniy va ijodiy aloqalarining qay darajada yuqori ekanini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, Ozarbayjon va O'zbekiston o'zaro sayyohlik oqimini oshirish yo'lida ham sezilarli qadamlar tashlamoqda. 2019-yilda Ozarbayjon Turizm Assotsiatsiyasi va O'zbekiston Turizm vazirligi o'rtasida imzolangan hamkorlik to'g'risidagi memorandum doirasida turizmni rivojlantirishga doir ko'plab qo'shma sayohatlar va tadbirlar tashkil etildi. 2022-yil iyun oyida esa O'zbekiston Turizm va Madaniy meros vazirligi va Ozarbayjon Davlat turizm agentligi o'rtasida 2022-yilga mo'ljallangan turizm sohasida hamkorlik dasturi imzolangan bo'lib, bu yo'nalishda ham ulkan ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, har ikkala mamlakatlar joylashgan mashhur "Buyuk ipak yo'li". sayyohlik marshruti ham hali foydalanilmagan ulkan salohiyat mavjudligining yorqin ifodasidir.

Shuningdek, Strategik sheriklikni chuqurlashtirish mamlakatlarimizning milliy manfaatlarga taalluqli barcha masalalarda global miqyosda va xalqaro tashkilotlar darajasida bir-birini qo'llab-quvvatlashi nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi. Umuman olganda, Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtasida Birlashgan Millatlar tashkiloti, Turkiy tilli Davlatlar tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti, Qo'shilmaslik harakati va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida yaqin aloqalar mavjud. O'zbekiston Turkiy tilli Davlatlar tashkiloti a'zosi, shuningdek, ushbu tashkilot doirasida Ozarbayjon bilan ham turli hamkorlik aloqalari samarali ravishda kengaytirilib bormoqda. Hamkorlik nafaqat iqtisodiy sohalarda balki ekologik va madaniy sohalarda ham olib borilishi, yanada samarali aloqalarni rivojlanishiga olib kelmoqda. Ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish zarur. Asosiy hamkorlikni iqtisodiyot tashkil qilsa-da, ekologik muammolarni ortishi, iqlim masalasi, tinchlik va barqarorlik masalalari hozirda dolzarb o'ringa chiqmoqda va bu masalalar

yuzasidan ham hamkorlikni chuqurlashtirish, muammolarni tahlil qilish, ularni yechimini birgalikda izlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hamkorlik orqali innovatsion loyihalar ishlab chiqish zarur. Bunga erishish yo'lida avvalo yoshlardan umid katta. Bugun biz hamkorlikda faoliyat olib borishni barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi eng ma'qul usul sifatida ko'rar ekanmiz, biz turli mamlakatlardan yig'ilgan iste'dodli, yosh, shijoatli yoshlarni turli dolzarb mavzular ostida, qiziqarli forumlar yordamida jamlash orqali, ularni o'zaro fikr almashish, g'oyalari bilan bo'lishish, do'stlar orttirish imkoniyatlarini berishimiz juda muhim. Bu usul maqsadlarimizga tezroq erishishimizga yordam beradi. Kelajak yoshlar qo'lida, ularning bevosita ishtiroki, e'tibori davr talabidir.

Adabiyotlar:

1. BMTning O'zbekistondagi rasmiy sahifasi <https://uzbekistan.un.org/en/sdgs>
2. Muhammad Asif Noor, "New Imputes in Azerbaijan and Uzbekistan relations" <https://dailytimes.com.pk/959458/new-imputes-in-azerbaijan-and-uzbekistan-relations/>
3. Nargiz Sadikhova, "President of Azerbaijan Ilham Aliyev arrived on a state visit to Uzbekistan on June 21", Trend reports BAKU, Azerbaijan, June 22.
4. Мария Уткина, "Азербайджан и Узбекистан укрепят стратегическое партнерство в наступившем году" <https://vestikavkaza.ru/analytics/azerbajdzan-i-uzbekistan-ukrepat-strategiceskoe-partnerstvo-v-nastupivsem-godu.html>